



TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMAN HOKIMI FARMOYISHI

2022 - yil 25 - avgust

145-10-141-F/22


Parkent tuman hokimligi

Mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrda "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-742-sonli Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 14-fevraldagi 2-sonli yig'ilish bayonida belgilangan topshiriqlarni ijrosini ta'minlash maqsadida hamda Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashining 2022-yil 4-martdagi VI-44-24-10-141-K/22-sonli qarori va tuman hokimining o'rinbosari E. Raxmonovning bildirgisini inobatga olib;

1. Parkent tumani mahalliy budjetining zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan tuman hokimligiga yuqorida keltirilgan bayonning 3-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida Parkent tumani A.Navoiy markaziy ko'chasini 36-metrgacha kengaytirish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash xarajatlari uchun **150,0** (bir yuz ellik) million so'm mablag' ajratilsin.
2. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (A.To'layev) tegishli hujjatlarni belgilangan tartibda Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi dasturiy majmuasida rasmiylashtirishni ta'minlasin.
3. Tuman G'aznachilik bo'linmasi (R.Yo'ldoshev) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda o'tkazilishini ta'minlasin.
4. Tuman Hokimligi bosh xisobchisi (M. Ma'diyev) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda maqsadli sarflanishini ta'minlasin.
5. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i Y. Abduxamidov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Sh.Shoxmedov



XALQ DEPUTATLARI PARKENT TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 4 - mart

VI-44-24-10-141-K/22

Parkent tuman hokimligi

Parkent tumanida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida tashkil etilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'larini 2021-yil uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori va tuman budgetining 2022- yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hamda yil davomida shakllanishi kutilayotgan qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrda "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi O'RQ-742-sonli Qonuniga hamda Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashining 2022- yil 12-fevraldagi VI-43-19-10-141-K/22-sonli qaroriga asosan tuman mahalliy budgetida shakllangan qo'shimcha manbalardan foydalanish yuzasidan, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Parkent tumanida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida tashkil etilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga 2021-yil uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori 1- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Parkent tumanida jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida tashkil etilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga 2022-yil birinchi bosqichi uchun yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Tuman budgetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hamda yil davomida shakllanishi kutilayotgan qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish 3-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.
4. Mahalliy budget mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 26-yanvardagi KQ-302-IV-son Qarori talablariga asosan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.
5. Tuman mahalliy budgetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hamda

sarflanishi ta'minlansin.

6. Tuman byudjetining qo'shimcha manbalaridan mablag' oluvchi tashkilotlar rahbar va mas'ul xodimlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar hisoblanadi hamda ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritadi.

7. Tuman hokimligi, moliya bo'limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritilgan takliflari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. Tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlari asosida yo'naltirilishi belgilab qo'yilsin.

9. Tuman byudjetining qo'shimcha manbalari quyidagilardan tashkil topadi:

- Tuman byudjetining har yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag'laridan;
 - Tuman byudjeti daromadlarining birinchi, ikkinchi, uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan daromadlarni prognozdan oshirib bajarilishidan;
 - davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tuman byudjetiga tushgan mablag'lardan;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan.

10. Tuman moliya bo'limi har chorakda byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosini tahlil qilish asosida O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 120-moddasiga muvofiq maqbullashtiriladigan to'rtinchi guruh xarajatlari bo'yicha byudjetdan ajratiladigan mablag'lar miqdorini aniqlanishi hamda ushbu mablag'larni boshqa maqsadga yo'naltirish bo'yicha taklif kiritilishini ta'minlansin.

11. Agar favqulodda vaziyatlarda va shunga o'xshash kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilishi talab etiladigan hollarda, Kengashga pul mablag'i ajratilgandan so'ng hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo'naltirilishi belgilab qo'yilsin.

Bunda, favqulodda vaziyatlarda va shunga o'xshash kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarga ajratiladigan mablag'lar moliya yili mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi qo'shimcha, ko'zda tutilmagan xarajatlarni o'z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlashga ajratiladigan qonun hujjatlari bilan byudjetdan ajratilishi belgilangan xarajatlar hisoblanadi.

Quyidagilar:

- tuman byudjetining qo'shimcha manbalarining **kamida 30 foizini** (*bunda shakllangan manbaning hammasini yo'naltirish ham mumkin*) jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirishi ko'rsatib o'tilsin (agarda maxsus portalda eng ko'p ovoz to'plagan taklifni moliyalashtirish uchun talab etiladigan mablag' tuman mahalliy byudjetining aniqlangan qo'shimcha mablag'ining 10 foizidan kam bo'lsa, bir yoki bir nechta tadbirlar uchun mablag' ajratish mumkinligi ko'zda tutilsin);

Jamoatchilik fikri tegishli axborot portali (openbudget.uz) orqali shakllantiriladi;

- "Toshkent viloyatini obodonlashtirish va farovonligini oshirish" jamg'armasini shakllantirish maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan olingan **50,0 mln.** AQSh dollari miqdoridagi kredit mablag'larini Parkent tumaniga jalb qilingan qismini qaytarish ishlarini o'z muddatidan kechiktirmay amalga oshirilishini

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi

PQ-3897-son qaroriga asosan viloyat hokimligi huzuridagi "Harbiy ma'muriy sektorni rivojlantirish" jamg'armasiga qo'shimcha shakllangan mablag'lardan 10 foizgacha mablag' yo'naltirilishini ta'minlasinlar.

12. Tuman mahalliy budjetidan mablag' oluvchi budjet tashkilotlarining to'rtinchi guruh bo'yicha xarajatlar smetasini ijro etish jarayonida tuman moliya organlari tomonidan optimallashtirilgan budjet mablag'lari tuman budjeti zahira jamg'armalarini ko'paytirishga hamda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishga tuman hokimining qaror yoki farmoyishlari asosida yo'naltiriladi.

Tuman budjetining prognozidan oshirib bajarilgan daromadlari, tuman Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotnomalariga asosan hisobot davri oxiriga qadar ortiqcha to'langan umumbelgilangan va mahalliy soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar hajmining hisobot davri boshiga nisbatan oshgan qismini chegirgandan so'ng qolgan qismidan foydalanishga ruxsat etiladi.

13. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo'naltirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

14. Qo'shimcha manbalar hisobidan mablag'lar ajratilgan tashkilotlar mablag'lardan foydalanish yakuni bilan moliya bo'limiga ulardan foydalanilishi bo'yicha hisobotlar taqdim etadilar.

Bunda ajratilgan mablag'larning foydalanilmasdan qolgan qismini kamaytirish yuzasidan mablag' oluvchilar tomonidan tegishli murojaatlar kiritiladi. O'z navbatida, moliya bo'limi tegishli farmoyishlarga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan tuman hokimining qaror (farmoyish)i loyihasini tayyorlaydi.

15. Tuman budjetining qo'shimcha manbalaridan mablag' oluvchilarning rahbar va mas'ul xodimlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar hisoblanadilar.

16. O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to'g'risida" Qonuniga muvofiq tuman budjetining qo'shimcha manbalari xisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'ektlar ro'yhati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni majburiy tartibda tuman hokimligining **rasmiy veb saytida** joylashtirib borilishi ta'minlansin.

17. Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashining 2021 yil 12 oktyabrdagi VI-37-23-10-141-K/21-sonli qarorining 1-ilovasi **4-ilovaga** muvofiq tahrir qilinsin.

18. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari v.v.b (A.Xomidov), moliya bo'limi (Y.Abduxamidov), g'aznachilik bo'linmasi (R.Yo'ldoshov) budjet mablag'laring shuningdek mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalarining sarflanishi bo'yicha muntazam monitoring o'rganishlar o'tkazib Kengashga ma'lumot kiritsin.

19. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.Madiyev), tuman g'aznachilik bo'linmasi (R.Yo'ldoshov) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilishini ta'minlasin.

20. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi B.Ruxitdinov hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari v.v.b A.Xomidov zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Parkent tuman
kengashi raisi

Sh.Shoaaxmedov



Xalq deputatlari Parkent tuman
Kengashining
2022 yil 4 martdagi
VI-44-24-10-141-K/22-son qaroriga
4-ilova

Parkent tuman budjetining 2022 yil 1 yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hamda yil davomida shakllanishi kutilayotgan qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish bo'yicha

YO'NALISHLARI

T/r	Ko'rsatkichlar	Yo'naltiriladigan	
		eng kam qismi	eng ko'p qismi
1	Jamg'armalarga o'tkazmalar		
	<i>Shundan</i>		
1.1	O'zbekiston Respublikasi "Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi" tomonidan ajratilgan 1 mln.AQSh dollar (8,0 mlrd.so'm) miqdoridagi kredit mablag'larni qaytarish uchun (shartnomaga muvofiq 2022 yil davomida rejalashtirilgan)		20
1.2	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 dekabrda 1047-son qaroriga asosan "Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash" jamg'armasiga		15
1.3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustda PQ-3897-son qaroriga asosan viloyat hokimligi huzuridagi "Harbiy ma'muriy sektorni rivojlantirish" jamg'armasiga		10
1.4	Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ehtiyojmand fuqarolarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida shakllantirilgan ("Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari") jamg'armalari uchun qo'shimcha shakllangan mablag'lardan har bir jamg'arma uchun 15 foizdan kam bo'lmagan mablag' yo'naltirish		15
1.5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyulda PQ-3856-son qaroriga asosan viloyat hokimligi huzuridagi "Yangi ish o'rinlari tashkil etishni rag'batlantirish" hududiy jamg'armasiga		40
1.6	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martda PQ-3630-son, 2018 yil 27 iyunda PQ-3812-son va 2019 yil 20 fevralda PQ-4201-son qarorlariga asosan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" jamg'armasiga	10	60
2	Ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va mavjud kreditor qarzdorliklarini qoplashga		20
3	Mavjud majburiyatlarni bartaraf etishga		
	<i>Shundan</i>		
3.1	Parkent tumani hududida amalga oshirilgan qurilish va ta'mirlash ishlarini davom ettirish hamda mavjud kreditor qarzdorliklarini bartaraf etish uchun		20
3.2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 mayda PQ-4343-sonli Qaroriga asosan Parkent tumanida jamoat tartibini saqlash harajatlari uchun profilaktika inspektorlari va post patrul xizmati shtat birliklarini saqlash bilan bog'liq harajatlarni o'z vaqtida amalga oshirilishini		10
4	Tuman mahalliy budjetidan mablag' oluvchi tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish hamda mavjud kreditor qarzdorliklarini bartaraf		40

5	Hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish masalalari bilan bog'liq tadbirlarga		
	<i>Shundan</i>		
5.1	aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlariga		10
5.2	oqova suv ta'minotini yaxshilashga		10
5.3	ichki yo'llarni ta'mirlash		10
5.4	obodonlashtirish masalalariga		10
5.5	kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llashga		10
6	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish, viloyatlarga tashrifi davomida hamda kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilish bayonlarida berilgan topshiriqlari ijrosini ta'minlashga		50
7	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining yig'ilish bayonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror, farmoyish, yig'ilish bayonlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlashga		50
8	Ko'zda tutilmagan boshqa tadbirlarga		10